



# NAMANGAN VILOYATIDAGI KORXONA VATASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

2020- yil 1- noyabr holatiga ko'ra  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

(Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi  
ma'lumotlar bazasi asosida shakllantirildi)






Mamlakatimizdagi kabi, viloyatimizda ham qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda

## Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)



# Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha  
2020- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)

3




## Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)




# Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, yanvar-oktabr oylarida)



## Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni


(yanvar-oktabr oylarida)






## Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)





Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2020- yilning 1- noyabr holatiga ko'ra 945 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 450 taga yoki 1,9 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 892 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 408 taga yoki 1,8 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

2020- yilning yanvar-oktabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 428 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 242 taga yoki 230,1 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


## Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni

(1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)

Tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2020- yilning 1- noyabr holatiga ko'ra 17 816 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 4 065 taga yoki 129,5 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 17 407 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3 882 taga yoki 128,7 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2020- yilning yanvar-oktabr oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 3 983 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 527 taga yoki 115,2 % ga oshganligini ko'rish mumkin.



# Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni

(2020- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)




Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni 2020- yil 1- noyabr holatiga ko'ra 257 tani tashkil etib, ulardan 250 tasi yoki 97,2 % i faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 41 taga yoki 119,6 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2020- yilning yanvar-oktabr oylarida viloyatimizda 39 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

## Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-oktabr oylarida, birlikda)




**O'zbekiston Respublikasida MDH davlatlarining kapitali  
ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni**  
(2020- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)

	Jami	shundan:	
		qo'shma korxonona	xorijiy korxonona
Rossiya Federatsiyasi	52	41	11
Qozog'iston Respublikasi	13	9	4
Xitoy Xalq Respublikasi	41	24	17
Qirg'iz Respublikasi	9	8	1
Tojikiston Respublikasi	10	8	2
Turkiya Respublikasi	31	14	17
Hindiston Respublikasi	9	2	7
Janubiy Koreya Respublikasi	29	21	8
Singapur Respublikasi	5	3	2
Eron Islom Respublikasi	3	1	2



# Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)



## Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni (2020- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)


10

	Jami	shundan:	
		qo'shma korxonona	xorijiy korxonona
Namangan viloyati	250	163	87
Namangan shahri	75	47	28
Mingbuloq	7	2	5
Kosonsoy	25	20	5
Namangan	15	15	
Norin	10	6	4
Pop	25	16	9
To'raqo'rg'on	20	12	8
Uychi	17	14	3
Uchqo'rg'on	6	2	4
Chortoq	19	12	7
Chust	19	11	8
Yangiqo'rg'on	12	6	6

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Namangan shahrida 75 ta (umumiy miqdoridagi ulushi 30,0 %), Kosonsoy 25 ta (10,0 %), Pop 25 tani (10,0 %), To'raqo'rg'on 20 ta (8,0 %), Chortoq 19 ta (7,6 %), Chust 19 ta (7,6 %) hamda Uychu 17 tani (6,8 %) tashkil etadi.

# Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2020- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)




2020- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi Namangan shahri (34,3 %), Chust (8,3 %), Namangan (7,1 %), Uychi (6,6 %), Pop (6,2 %), Kosonsoy (6,2 %), To'raqo'rg'on (6,2 %), Uchqo'rg'on (5,7 %), Chortoq (5,3 %), Yangiqo'rg'on (5,1 %), Norin (4,6 %), Mingbuloq (4,4 %) hissalariga to'g'ri keladi.

## Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2020- yil yanvar-oktabr oylarida, birlikda)


2020- yilning yanvar-oktabr oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda, ularning soni Namangan shahrida (22,4 %), Pop (9,2 %), Chust (8,4 %), Uychi (8,0 %), Namangan (7,9 %), To'raqo'rg'on (7,4 %), Uchqo'rg'on (6,9 %), Kosonsoy (6,2 %), Chortoq (6,1 %), Yangiqo'rg'on (6,0 %), Mingbuloq (5,8 %), va Norin (5,7 %) hissalariga to'g'ri keladi.



# Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining hududlar kesimidagi soni


(2020- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)

12




## Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar kesimidagi soni

(2020- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)




2020- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi, Namangan shahrida (38,6 %), Uychi (7,2 %), Pop (6,7 %), Namangan (6,6 %), Chortoq (6,1 %), Kosonsoy (6,0 %), Chust (5,4 %), Yangiqo'rg'on (5,2 %), To'raqo'rg'on (4,9 %), Norin (4,9 %), Uchqo'rg'on (4,7 %), va Mingbuloq (3,7 %), tumanglari hissasiga tegishli.



2017-2021- yillarda rivojlanishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi"ning uchinchi muhim yo'nalishi - xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish hisoblanadi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonini o'sib borishi, eng avvalo, viloyatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining qonuniy asoslari takomillashib borayotgani bilan izohlanadi.

# Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining hududlar bo'yicha soni



(2020- yilning yanvar-oktabr oylarida, birlikda)



2020- yilning yanvar-oktabr oylarida, yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar hududlar kesimida taqsimlanganda Namangan (25,5 %), To'raqo'rg'on (14,6 %), Yangiqo'rg'on (14,0 %), Uchqo'rg'on (10,3 %), Uychi (9,1 %), Chortoq (8,4 %), Namangan shahri (7,9 %), Kosonsoy (3,7 %), Chust (2,6 %), Mingbuloq (2,1 %), Norin (1,6 %), Pop (0,2 %) tumanglari hissasiga tegishli.

## Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(2020- yilning yanvar-oktabr oylarida, birlikda)



## Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

**Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri** – axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

**Ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlar** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslardir (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

**Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslardir.

**Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda, yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslardir.

**Kichik korxonalar va mikrofirmalar** – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275-son qarorining 1-ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.